

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



***Journal of Preschool  
Education***

***The faculty of pre-school  
education***



**CHAP QO'L VA CHAPAQAY O'QUVCHILAR BILAN TA'LIM  
JARAYONINI TASHKIL ETISH.**

**Isanova Visola Oybekovna**

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti

o'qituvchisi

**Axatov Muxriddin Alham o'g'li**

Jizzax Davlat Pedagogika Inistituti

Pedagogika va Psixologiya fakulteti 4-bosqich talabasi.

**Annatatsiya:** Bugungi kunda ta'lism jarayonida ko'plab pedagoglar, shuningdek ota-onalar ham duch keladigan noqulay holat bu o'quvchidagi chapaqaylikdir. Chapaqaylik nima, chapaqaylikni qanday aniqlash mumkin, chapaqaylik bu – nuqsonmi yoki iqididor, chapaqay bola bilan qanday faoliyat olib borish tavsiya etiladi. Barchaga yaxshi malumki, chap qo'lning o'ng qo'ldan ustunligi tug'ma xususiyatga egadir.

**Kalit so'zlar:** Chapaqaylik, O'ng qo'lllik, Verbal va Mantiqiy tafakkur Ambidekstriya, Mator, Sensor, Asimmetriya, Sintez,

**Asosiy qism:** Chapaqaylik bolaning individual xususiyati bo'lib, uni ta'lism jarayonida hisobga olish shart. O'quv ta'lism jarayonini an'anaviy ravishda verbal va mantiqiy tafakkur taraqqiyotiga, chap miya yarim sharlari rivojlanishiga asoslanadi. Bunday holat esa chapaqay bolalarning ta'lism jarayoniga muvaffaqiyatli moslashuvini qiyinlashtiradi. Chap yoki o'ng qo'lning ustunlik qilishi bolaning istagi yoki erkaligi emas balki miyaning o'ng va chap yarim sharlari o'rtasida vazifalarning o'ziga hos taqsimlanishidir. Nima uchun chap qo'l ustunligi kelib chiadi? Nimaning oqibatida chapaqaylik paydo bo'ladi? Biz odatda miya haqida bir butun a'zo kabi fikr yuritamiz, lekin uning birligi ikkala miya yarim sharlarining faoliyatidan tashkil topadi. Ularning o'rtasida qat'iy farq bo'lib, miyaning funksional munosabatlarida ikkala yarim sharlarning ulushi bir xil emas.

Bundan tashqari ulardan biri usunlik qiladi. Namoyon bo'lish xarakteriga ko'ra funksional assimetriyaning uchta turini ajratish mumkin:

Mator-umumiy xarakter xulq-atvor shakillanishida tananing chap va o'ng qismi qo'l oyoq va yuzning notekis ishtiroki.

Sensor-juft sezgi organlarining funksional notekisligi va psixik nutqning tashkil topishi va boshqa oliv psixik jarayonlar. Taxminan 70 % chapaqay bolalarning nutq markazlari chap miya yarim sharlarida, 30 % esa o'ng miya yarim sharlarida joylashgan. Qo'l-odam harakat faolligining yarim funksional a'zosidir. Shuning uchun ham qo'lning imo-ishora a'zosi sifatida rivojlanishi chap qo'lning nutq markazini tashkil topishida yetakchiligidan dalolat beradi. Qo'l asimmetriyasi tushunchasi ko'p bo'lib, ulardan keng tarqalganlari: O'ng qo'llik, Chapaqaylik, Ambidekstriya (ikki qo'llik). Chapaqaylikning namoyon bo'lishi asosidagi omillarni, olimlar patologik, irsiy va majburiy chapaqaylikni ajratadi. Biroq ko'pchilik olimlar chapaqaylikni "tabiiy" irsiy ekanligini ta'kidlaydi. Chapaqaylik bu kundalik odatiy yumushlarni chap qo'lda bajarish holatidir. Chap yoki o'ng qo'lning ustunlik qilishi bolaning istagi yoki erkaligi emas, balki miyaning o'ng va chap yarim sharlarning faoliyatiga bog'liq. Bosh miyaning o'ng yarimshari dunyonni so'z ishtirokisiz qabul qiladi. Chap yarimshar esa so'z bilan ifodalangan ma'lumotlarni qabul qiladi va taxlil qiladi. Bola asosan, qaysi qo'lda foydalanishini bilish uchun turli usullarni qo'llash mumkin. Masalan, bolani soatning chiqilashini eshitib ko'rishga undang. Soatni qaysi qulog'iga tutishiga e'tibor bering. Aksariyat hollarda yetakchi qo'l bosh rolni bajaradi. Chapaqaylik oddiy odat emas va kamchilik ham emas. Bu individual xususiyat bo'lib, buni oddiy holat deb qabul qilish lozim. Ko'plab ota-onalar boladagi ushbu holatni salbiy xiausiyat deb, xavotirga tushadi va bolani turli yo'llar bilan o'ng qo'lga moslashtirishga urinadi. Ota-onsa yoki o'qituvchi uni o'ng qo'ldan foydalanishga majburlasa, bola hamma qatori emasligidan uyala boshlaydi va bu kamchiligini ko'rsatmaslikka urinadi. Natijada bola yig'laydi va asabiylashadi. Rasmiy hujjatlarda chapaqay bolani zo'rlab o'rgatish unda nevrotik buzilishlar, hiqchoq

paydo bo'lishiga, peshob ushlamaslik, neyrodermit va bronxial astma kasalliklarining kuchayishiga sabab bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan.

Chapaqay bolalar bilan munosabatda bir qancha tavsiyalar.

~yonidagi o'quvchiga xalal bermasligi uchun bolaga partaning chap tomonidan joy bering,

~chapaqay bolani o'qitishda u bilan ehtiyyotkorona va muloyim munosabatda bo'ling,

~bola qaysi qo'li o'ng, qaysi qo'li chap ekanligini bilib olishga ko'maklashing,

~uni har ikki qo'lini ham faol harakat qildirishga o'rgatib turing (to'p bilan o'ynash, musiqiy asboblarni chalish),

~kichkintoy chapaqayni shoshiltirmang, chunki u xotirjamlikni yaxshi ko'radi,

~husnixat va yozuv jarayoniga alohida e'tibor bering (amaliy jihatdan chapaqay bola uchun yozishni o'rganish o'naqaylarga nisbatan qiyin),

~ruhlantirish uchun kichik rag'batlantirishlarni ham kanda qilmang,

~oddiy va tushunarli chizmalar ustida ishlashga o'rgating,

~diqqatni jamlash uchun grafik diktant o'tkazing (guruhiy tarzda ham amalga oshirish mumkin),

~tortinchoqlikni bartaraf etish uchun rolli o'yinlar taklif eting.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda tabiat g'ayrioddiy xususiyatlar bilan siylagan chapaqaylarni boshqa qo'lga o'rgatishga majburlamay o'z holiga qo'ygan yaxshi, bunga javoban u o'z taraqqiyotining yuksak ko'rsatgichlari, tafakkurdagi ilg'orligi, musiqa va badiiy ijoddagi ajoyib qobiliyati va yutuqlarini namoyon etadi. Masalan, taxlillarga ko'ra dunyo axolisining har yettingchisi yani 15 % chapaqaylar hisoblanadi. Ruxshunoslar fikiricha, chapaqaylar kuchli ijodiy imkoniyat, shuningdek, yuqori darajadagi intellekt sohibi bo'ladilar. Masalan, Aristotel, Mark Tvin, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Betxoven, Merlin Manro, Yuliy Sezar,

Napoleon Banapart chapaqay bo'lishgan, Ular orasida memorlar, rassomlar, musiqachilar, matematiklar ko'proq. Chapaqay bokschilar va tennischilar ham o'zlarining qobiliyatlari bilan mashxur bo'lgan. Shuningdek, AQSHning har sakkiz nafar prezidentining besh nafari chapaqay. Masalan, Barak Obama, Bill Clinton, Ronald Reygan, Gerald Ford.

Shunday qilib, chapaqay bolalar mакtabda ko'pgina muammolarga duch kelishlari mumkin. Ayniqsa, maktabgacha bo'lgan davrda va kichik mакtab yoshida ularning to'laqonli psixik taraqqiyotiga yetarlicha zaruriy e'tibor qaratilmasa, o'quv faoliyatini egallashda jiddiy muammolarga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Galperin. S. N, "Bolalarning fizialogik xususiyatlari". M. Prosveshenie.
2. To'raqulov Yo. X. "Hozirgi zamon biologiyasi va irsiyat masalalari". T, Fan 1969 yil.
3. Y. Azimov, R. Qo'ldoshev. "Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari". T.: Turon zamin ziyo, 2017 yil.
4. Y. Azimov, A. Hamroyev, "Husnixat va uni o'qitish usullari", Buxoro, 2003yil.
5. Isanova, V. (2020). interrelation between language and culture - the main basis of lingoculturology. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(83).

извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/7307](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7307)